

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi:
№ _____
“ _____ **”** _____ **2022 yil**

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
_____ **Eshonqulov R.A.**
“ _____ **”** _____ **2022 yil**

“MEHNAT HUQUQI ASOSLARI” fanining

ISHCHI O‘QUV DASTURI

<i>Bilim sohasi:</i>	<i>600000 – Ishlab chiqarish va texnik sohasi</i>
<i>Ta’lim sohasi:</i>	<i>640000 – Hayotiy faoliyat xavfsizligi</i>
<i>Ta’lim yo‘nalishi:</i>	<i>5640200 – Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (tarmoqlar boyicha)</i>

Qarshi-2022 yil

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim Vazirligi 2020-yil "07" dekabrda № __ sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan fan dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar : L. Eshmuhamedov- QarMII "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasida assistenti.

Fanning ishchi o'quv dasturi "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasida yig'ilishida (bayon № __, _____.2022 y.), Geologiya va konchilik ishi fakulteti Uslubiy komissiyasida (bayon № __, _____2022 y.) va institut Uslubiy kengashida (bayon № __, _____2022 y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

QMII O'quv- uslubiy boshqarma

boshlig'i: _____ A.Mallayev

Fakul'tet uslubiy komissiyasi
raisi _____ kat.o'q. M. G'ofurov

"Ekologiya va mehnat muhofazasi"
kafedra mudiri: _____ Z.Uzoqov

KIRISH

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog'lom va barkamol, bilimli, yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlarga ega bo'lgan avlodni shakllantirishdan iboratdir.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi PF №4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" qabul qilinganligi uning to'rtinchi ustuvor yo'nalishida ijtimoiy sohani rivojlantirishga alohida urg'u qo'yilgan bo'lib, ta'lim sohasida ilg'or texnologiyalarni joriy etish va shu orqali ta'lim mazmunini jahon andozalari darajasiga olib chiqishni ustuvor vazifa etib belgilangan.

Hayot faoliyatini ta'minlash muammosini hal etish - odamlarni meyoriy sharoitda faoliyat olib borishi, uni o'rab turgan atrof muhitdagi ruxsat etilgan meyoridan ortiq xavfli va zararli omillardan himoya qilish, optimal mehnat faoliyat, dam olish sharoiti yaratish va ishlab chiqarishda yuqori ish samaradorlikka erishishdan iboratdir.

Ishlab chiqarishda barcha sohalarida ishlayotgan zamonaviy mutaxassislar mehnat xavfsizligini ta'minlash maqsadida, ishlab chiqarishda sodir bo'layotgan voqiyalarni anglalash, mehnat xavfsizligini to'g'ri rejalashtirish va boshqarish orqali xavfsiz mehnat sharoitini yaratish va iqtisodiy samaraga erishish mumkinligini tushinish, baxtsiz xodisalarining oldini olish, tahlili qilish va uning oqibatlarini bartaraf etishga tegishli qarorlar qabul qilish uchun yetarli darajada bilim saviyasiga ega bo'lishi lozim. Aynan ushbu bilimni "Mehnat huquqlari asoslari" fani o'rganadi.

Ushbu "Tashkilot va korxonalarda mehnat muhofazasini rejalashtirish va boshqarish" fanidan ishchi dastur fan bo'yicha davlat ta'lim standarti va namunaviy dastur asosida tuzilib "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan. Unda fanning maqsad va vazifalari talabalar bilim va ko'nikmasiga bo'lgan talablar, mashg'ulotlarning mavzusi va qisqacha mazmuni va amaliy mashg'ulotlari uchun zarur texnik vositalar, baholosh mezonlari, mustaqil ish bo'yicha ko'rsatmalar va tavsiya etilgan adabiyotlar ruyxati keltirilgan.

I Fanning oliy ta'limdagi o'rni hamda maqsadi va vazifalari

1.1. O'quv fanning dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Ushbu dastur fan tarixi, rivoji va istiqboli hamda Respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalari, ishlab chiqarish mehnat xavfsizligi muammolari inson hayoti xavfsizligiga ta'siri masalalarini qamrab oladi. Zero hozirgi vaziyatda xavfsiz hayotni ta'minlash masalalari eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki texnosferalarda ishlab chiqarish jarayoni buzilishi, ishlovchilar uchun sanitariya va gigiyena meyor va qoidalarga rioya qilmaslik, insoniyat tomonidan qo'llanilayotgan turli zaharli va zararli moddalar va vositalar ko'plab xavflarni yuzaga keltirib, insonlarning hayotiy faoliyatiga, sog'lig'iga, atrof-muhit tozaligiga va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga tahdid solmoqda. Shu sababli ham mamlakatimizning eng muhim va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalari qatorida mehnat xavfsizligi ta'minlash masalalari dolzarb o'rin olgan.

Fanni o'qitilishining maqsadi – bo'lajak mutaxassislariga ishlab chiqarish korxonalarida mehnat muhofazasini rejalashtirish va boshqarish orqali yuzaga keladigan xavflar kelib chiqish sabablarini, xususiyatlarini, oqibatlarini va ularni yo'qotish qoidalarini, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, xodimlarni himoya qilish va boshqa bir qancha mehnat muhofazasiga tegishli bo'lgan nazariy va amaliy bilim ko'nikmalarini o'rgatishdan iborat.

fanni o'rganishning asosiy vazifalari: bo'lajak mutaxassislariga ishlab chiqarish korxonalarida mehnat muhofazasini to'g'ri rejalashtirish va boshqarish orqali xavflarni identifikatsiyalash va ularni o'rganish, ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, texnosferada kasb kasalliklarini kamaytiradigan va baxtsiz hodisalarning oldini oladigan chora-tadbirlarni o'rganish va boshqa muhim vazifalarni bajara oladigan bilim, ko'nikma va kasbiy malakaga ega mutaxassisni tarbiyalashga qaratilgan.

Fanni o'qish natijasida bo'lajak mutaxassislar quyidagi bilim va malakaga ega bo'lishlari fanning asosiy vazifalari sanaladi

a) Tasavvurga ega bo'lishlari kerak:

O'zbekiston Respublikasi mehnat xavfsizligi qonuniyatlari va halqaro mehnat xavfsizligi konvensiyalariga asosan tashkilot va korxonalarda mehnat muhofazasini to'g'ri rejalashtirish va boshqarish;

ishlab chiqarishda xodimlar mehnat faoliyati va uning turlari haqida tasavvurga ega bo'lish;

ishlab chiqarishda xavfli va zararli omillarni tahlil qilishni bilish;

ishlab chiqarishdagi mehnat sharoiti og'irligi va zo'riqishga asos bo'luvchi omillarni bilish;

ishlab chiqarishda ishchilarga xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlarini yaratish;

baxtsiz hodisalarni sabab va oqibatlari haqida tasavvurga ega bo'lish;

ishlab chiqarish sanitariyasi va gigiyenasi asoslari haqida tasavvurga ega bo'lish;

b) Talabalar bilishlari kerak:

mehnat muhofazasi sohasida qabul qilingan qonun hujjatlari va boshqa hujjatlarning asosiy talablarini;

mehnat muhofazasi sohasida ish beruvchi va ishchi xodimlarning huquq va burchlari;

Mehnat muhofazasi sohasiga o'qitish va yo'riqnoma berish tartibi va usullarini;

xodimlarni avariya va xolakatlardan muhofazalanishga tayyorlash tartibini;

o'quv muassasalari obyektlarida va hududida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan baxtsiz xodisalarini;

mikroiqlim, radiatsion, kimyoviy va biologik (bakteriologik) razvedka, dozimetrik nazorat asboblariidan foydalanish tartibi va qoidalarini;

jamo va shaxsiy muhofaza vositalaridan foydalanish qoidalari va tartibini.

v) Talabalar bajarishlari lozim:

jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsata olishni;

jamo va shaxsiy muhofaza vositalaridan foydalanishni;

mikroiqlim, yoriqlish, shavqin, titirash, radiatsiyaviy, kimyoviy va biologik (bakteriologik) razvedka va dozimetrik nazorat asboblari bilan ishlashni.

1.2 Mehnat huquqlari asoslari fanining boshqa fanlar va ishlab chiqarish bilan o'zaro bog'liqligi

“Mehnat muhofazasi” fani “Hayot faoliyati xavfsizligi”, “Muhandislik psixologiyasi”, “Psixofiziologiya”, “Ergonomika”, “Texnikaviy estetika”, “Atrof muhit himoyasi va ekologiya”, “Favqulodda holatlar va fuqorolar muhofazasi” kabi fanlarning yutuqlariga asoslanadi. Ushbu fanlar bilan birga tadqiqot qiladi va o'rganadi.

Mehnat huquqlari asoslari fanini o'rganish nafaqat texnosferada xavflar tug'ilganda, balki **ishlab chiqarish jarayonida** ishlovchilarni kasb kasalligiga chalinishlarini qisqartirish, baxtsiz hodisalar oldini olish shuningdek, ishlab chiqarishda (atrof-muhitda) yuz beradigan insonlar o'limi va moddiy zararlar miqyosini kamaytirish imkonini beradi.

II. Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari dasturni interfaol usullarda o'zlashtirishni taqazo qiladi. Bunda asosiy e'tibor auditoriya mashg'ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o'zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga hamda obyektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyoqarashni shakllantirishda ma'ruza mashg'ulotlariga katta o'rin ajratiladi.

Dastur materiallarini o'zlashtirish to'rt xil:

muammoli mavzular bo'yicha;

mustaqil o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan bo'limlar bo'yicha;

ta'lim oluvchilarda alohida qiziqish uyg'otuvchi bo'limlar bo'yicha;

oldinga siljigan ma'ruzalarni interfaol usulda o'qitish yo'li bilan;

mustaqil ta'lim olish va ishlash, kollektivumlar va munozaralar jarayonida o'zlashtiriladigan bilimlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilan **amalga oshirishni nazarda tutadi.**

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallari va meyoriy hujjatlar bilan ishlashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlari paytida qabul qilingan ma'lumotlarni mushohada qilish qobiliyatini ko'rsatishi zarur.

Fanni o'zlashtirishda masofadan o'qitish, darslik, o'quv qo'llanmalari va ma'ruzalar matnlarining elektron versiyalaridan, ma'ruzalar o'qish, elektron plakatlar va internet tarmog'idan foydalaniladi.

“Mehnat huquqlari asoslari” fanini o'qitish jarayonida quyidagi asosiy konseptual yondashuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondashuv. Bu yondashuv o‘quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va o‘z – o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta’lim. Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish usuli ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtiradi. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini ijodiy tarzda qo‘llanilishi dialektik mushohadani shakllantiradi va rivojlantiradi natijada talabani mustaqil ijodiy faoliyati ta’minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vosita va usullarini qo‘llash–yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish.

O‘qitishning usullari va texnikasi. Ma’ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta’lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O‘qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o‘zaro o‘rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O‘qitish vositalari o‘qitishning an’anaviy shakllari (darslik, ma’ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Monitoring va baholash: kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi. baholash oraliq va yakuniy nazorat asosida kompyuter yordamida bajariladi.

III. “Mehnat muhofazasi” fani boyicha “5640200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi ta’lim yo‘nalishida soatlarning taqsimlanishi

Umumiy o‘quv soati	120 soat
Shu jumladan:	
Ma’ruza	8 soat
Semenar	8 soat
Mustaqil ta’lim	104 soat

3.1 Ma’ruza mashg‘ulotlari

T/R	Mavzu	Soat
5-semestr		
1	1-mavzu.“Mehnat huquqi asoslari” fanining maqsadi,vazifalari,predmeti va uslublari. Kirish. Mehnat huquqi tushunchasi. O‘zbekiston Respublikasida Mehnat Kodeksi va uning mohiyati. O‘zbekiston Respublikasida Mehnatni muhofa qilish to‘g‘risidagi Qonuning mazmun va mohiyati.	2

2	2-mavzu. Mehnatni tashkil qilishning huquqiy - me'yoriy asoslari. Mehnat shartnomasi tushunchasi, mazmuni va taraflari. Mehnat shartnomasini tuzish tartibi. Mehnat shartnomasini o'zgartirish.	2
3	3-mavzu. Mehnat jarayonidagi xodimning huquq va majburiyatlari. Ish vaqti va dam olish vaqti. Xodimning mehnatga xaq to'lash. Mehnat intizomi.	2
4	4-mavzu. Xodim va ish beruvchining mehnat muhofazasiga oid majburiyatlari. Ish beruvchining mehnat muhofazasiga oid majburiyatlari. Xodimning mehnati muhofazasi. Mehnat nizolari	2
	Jami	8

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Ushbu o'quv fani bo'yicha talabalarni seminar mashg'ulotlarni ma'ruzalar matni va tavsiya etilgan adabiyotlar hamda davriy jurnallar, internet materiallari bilan ishlashni, standart va malaka talablariga mos ravishda taqdimot, erkin-ijodiy ishlar ko'rinishida bajarishni o'z ichiga oladi.

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Mehnat muhofazasini ta'minlovchi me'yoriy hujjatlarning tahlili.
2. Mehnat shartnomasining aralash fuqarolik huquqiy shartnomalaridan farqini tahlil qilish.
3. Ish vaqti rejimi. Ish vaqtidan tashqari ishlar. Dam olish vaqti.
4. Mehnat muhofazasi sohasidagi davlat siyosati va boshqaruvi.

IV. Mustaqil talim va mustaqil ishla

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot texnologiyalari qo'llanishi nazarda tutilgan: Ushbu o'quv fani bo'yicha talabalarni mustaqil ta'lim ma'ruzalar konspekt va tavsiya etilgan adabiyotlar hamda davriy jurnallar, internet materiallari bilan ishlashni, standart va malaka talablariga mos ravishda mustaqil bajarishni o'z ichiga oladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzulari:

1. "Mehnat huquqini o'rganishni ahamiyati va o'rganishda boshqa fanlarning bog'liqligi.
2. Korxonalarni huquqiy jihatdan jihatidan tashkil qilish
3. "Mehnat huquqini o'rganishda muammolarni echishda ilmiy- tadqiqot ishlarning ahamiyati.
4. Korxonada mehnat qonunchiligiga qo'yiladigan talablar.
5. Mehnat muhofazasi masalalarini hal qilishda sog'lom muhit yaratishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ahamiyati.
6. Korxonada mehnat xavfsizlikni ta'minlashda avtomatizatsiyani ahamiyati.

7.Mehnat muhofazasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining ahamiyati.

8.Texnologik reglamentlarning tarkibi va ahamiyati haqida tushuncha.

9.Ayollar va o'smirlar mehnatini himoyalash va ularga belgilangan imtiyozlar.

10.Mehnat muhofazasi xizmatini uyushtirishda korxona rahbari, bosh muhandisni, xavfsizlik muhandisini huquq va vazifalari.

11.Ishlab chiqarish korxonasi kasaba uyushmasi qo'mitasini huquq, vazifalari.

12.Nomenklaturali tadbir-choralar, ularni amalga oshirish, moliyaviy ta'minot.

13. Mehnat muhofazasi bo'yicha mavjud bo'lgan va qo'llanadigan norma, qoida, standart, yo'riqnomalar turlari.

14. Davlat sanitariya nazorati inspektorining huquq va vazifalari.

15. Davlat energetika nazorati inspektorini huquq, vazifalari.

16. Ishlab chiqarishda amalga oshiriladigan tuzatish ishlariga bo'lgan talablar, nazorat.

17. Mehnatni muhofaza qilishda psixologiyani ahamiyati.

18.Korxona muhitidagi xavfli zararli holat, omillar, ulardan ogohlantirish.

19.Mehnat muhofazasi bo'yicha davlat nazorati tashkilotlari, vazifalar

IV. Fan bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish

Talabalar bilimni nazorat qilish Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan tavsiya etilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizom (*Nizom O'z.R. OO'MTVning 2009 yil 11 iyundagi 204-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 10 iyulda 1981-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. O'z.R. OO'MTVning 2010 yil 25 avgustdagi 333-sonli buyrug'i bilan Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 26 avgustda 1981-1-son bilan davlat ro'yxatidan qayta o'tkazilgan.*) asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomga muvofiq fan bo'yicha o'quv semestri davomida uch turdagi, ya'ni joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

Joriy nazorat - fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim topshiriqlari buyicha. og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi.

Oraliq nazorat – semestr davomida modulli tizim asosida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin, talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida yozma, og'zaki, test shaklida o'tkaziladi. Oraliq nazorat bir semestrda ikki (yoki bir) marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) hamda soni o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi

Yakuniy nazorat – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi. Ilmiy Kengash qarori bilan yakuniy nazorat og'zaki, test va boshqa shakllarda ham o'tkazilishi mumkin.

Fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish.

Talabalarining fan bo'yicha o'zlashtirishini aniqlash uchun quyidagi baholash turlari o'tkaziladi:

Oraliq baholash (OB) - semestr davomida talabaning fan o'quv dasturini tegishli tugallangan bo'lim(lar)ini o'zlashtirishini baholash usuli. OB soni (bir semestrda 2 tadan oshmasligi lozim) va shakli (suhbat, yozma ish, og'zaki so'rov, test o'tkazish, kollokvium, hisob-grafika ishi, nazorat ishi, kurs ishi, kurs loyixasi, ijodiy topshiriq va hokazo) fan xususiyati va unga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

Yakuniy baholash (YAB) - semestr yakunida talabaning muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishini baholash usuli. U asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan yozma ish, og'zaki so'rov, test, ijodiy ish va boshqa shakllarda o'tkaziladi.

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirishini baholashda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi:

5 (a'lo) baho: to'g'ri va mukkamal xulosa va qaror qabul qilish; ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish..

4 (yaxshi) baho: mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.

3 (qoniqarli) baho: mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.

2 (qoniqarsiz) baho: dasturni o'zlashtirmaganlik; fanning mohiyatini bilmaslik; aniq tasavvurga ega bo'lmaslik; mustaqil fikrlay olmaslik.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

VI. Dasturning informatsion- uslubiy ta'minoti.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida O'zbekiston Respublikasining mehnatni muhofaza qilishga oid qonunlari, kodekslar, Prezident Qarorlari va Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, chet el va Respublikamizda nashr etilgan adabiyotlar, elektron adabiyotlar, mavzusiga oid texnik jihozlar, turli slaydlar, vikepediyalar, ilmiy jurnallardagi maqolalar, ma'ruza matnlari, fan bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar hamda Internet materiallaridan foydalaniladi.

VI. Dasturning axborot-uslubiy ta'minoti

8.1. Foydalanilgan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

8.1.1. Asosiy adabiyotlar.

1. A. Mark, P. Friend James Fundamentals of Occupational Safety and Health. Bernan Press. Germaniya, 2007
2. Yuldashev O.R. Mehnat muhofazasi maxsus kursi./ Darslik. –T.: “Tafakkur qanoti”, 2015. – 336 b.
3. E.I. Ibragimov, S. Gazinazarova, O.R. Yuldashev. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik.-T.: TIMI, 2014.-536 b.
4. Yuldashev O.R., Djabborova Sh.G., Xasanova O.T. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik–T.:“Toshkent-Iqtisodiyot”, 2014.– 268 b.
5. Yormatov G‘.Yo. va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Aloqachi”, 2009. – 348 b.
6. Tursunov Y., Usmanova M. Mehnat huquqi. Darslik - Toshkent, “Moliya”, 2006, 227-b

Qo‘shimcha adabiyotlar

7. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –
har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
8. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
9. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O‘zbekiston, 2014. – 46 b.
10. “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (yangi taxriri) O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016 yil 22 sentyabr.
11. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi Nizom. Vazirlar Mahkamasining qarori № 286, 06.06.1997, –T.: 1997.
12. “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi qonun. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008, 37-38-son.
13. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори “Ўзбекистон Республикаси бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 2018 йил 31 декабрь, 1066-сон

Axborot manbalar

13. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.
14. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
15. www.mintrud.uz – Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sayti.
16. www.bilim.uz – OUMTV sayti

